

## YOSHLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

*Fayziyev Abdurahmon Rustam o'g'li*

*TDTrU Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs*

*Yu-5 guruh talabasi*

*E-mail: [fabdurahmon50@gmail.com](mailto:fabdurahmon50@gmail.com)*

*Telefon raqami: +998994662231*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi yoshlari o'rtasidagi muammolar va ularning yechimlari qay tartibda hal qilinishi, shuningdek Prezidentning yoshlar siyosatini eng muhim masala ekanligi va ularga ta'lim -tarbiya berishdagi eng nozik jihatlar, hamda „Yoshlar daftari” ga kiritilgan, ijtimoiy himoya qilish, ularni ta'limga yo'naltirish, axloqi, shart -sharoiti va zamonaviy ruhda tarbiyalash kabi masalalarga to'xtab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** „Yoshlar daftari”, „ijtimoiy davlat”, „Mehribonlik uylari”, „Temurbeklar maktabi”, „Ijod maktablari”, „Prezident maktablari”

Bugungi kunda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiyada e'lon qilingan „ijtimoiy davlat” tamoyillarini inobatga olgan holda, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish, aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot kechirishi uchun qulay muhit yaratish, aholining ijtimoiy sug'urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish bilan bog'liq masalalarga asoslanadi.

So'ngi yillarda, ta'lim sohasiga har qachongidan ham yanada ko'proq e'tibor berilmoqda, O'zbekistonda iqtidori bor, ammo imkoniyati yetmaydigan iqtidorli yoshlar talaygina, xususan, O'zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni muammo va uning yechimlarini hal qilish barcha uchun birinchi darajadagi dolzarb muammodir. Shuni alohida takidlash kerakki, yoshlar manfaatini himoya qiluvchi nodavlat va notijorat tashkilotlar soni ortmoqda. Shu bilan birga ushbu jarayonga kasaba uyushmalari ham jalb etilib, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashmoqda, amaliy hayotga tadbqiq etib kelinmoqda, Ayniqsa,

ta'lim sohasi orqali zamonaviy yetuk kadrlar tayyorlash eng muhim masalalardan biri, buning uchun yoshlarga oid har qanday ijtimoiy himoyani kuchaytirish zarur.

Yoshlar deganda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar tushuniladi va ularni bugungi kunda turli muammolari ko'p, himoyaga muhtoj yoshlar ham shunga yarasha aynan "Mehribonlik uylari", O'z boquvchisini yo'qotgan va jismonan nuqsoni bor yoshlarni himoya qilish, ularga ta'lim-tarbiya berish kelajakda yaxshi kadr bo'lib yetishishlariga ko'maklashish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidagi barcha yoshlarni Oliy ta'limga yo'naltirish, ularga bu borada ko'mak berish, ta'lim - tarbiya sohasida islohatlar o'tkazish, ularni kasb mahoratini oshirish kabi masalalarni hal qilishda qo'llab-quvvatlash, himoyaga muhtoj bo'lganlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni rag'batlantirish maqsadida moddiy tomondan ta'minlash zarur.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi 23-sonli "O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ni tasdiqlash to'g'risidagi qaroriga muvofiq, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi.

Yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "besh muhim tashabbus"ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari — "Prezident maktablari", "Temurbeklar maktabi", "Ijod maktablari" bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2021-yilning 28-apreldagi 250-sonli qarorida 2021- yilning o'tgan davrida yoshlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi hisoblangan "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturlari" asosida 430 ming nafar yigit-qizning hayotiy muammolarini hal etish uchun

300 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirildi, 92 ming nafardan ziyod yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2,3 trillion so‘m imtiyozli kreditlar, qishloq joylarda yashayotgan 230 mingdan ortiq yoshlarga dehqonchilik bilan shug‘ullanishi uchun 61 ming gektar yer maydoni ajratildi, bu boradagi ishlarning ko‘lami tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari prezidentning yoshlar uchun sharoit yaratish maqsadida oliy ta’limda taxsil olayotgan yigit va qizlar uchun turli xil imtiyozlar berilmoqda, Ayniqsa, ayol-qizlarga bu borada imkoniyatlar kengaytirilmoqda. Ular uchun qo‘shimcha buyujet kvotalari oshirish, shuningdek, moddiy tomondan ehtiyoji bor yigit va qizlarning shartnoma to‘lovlari to‘lab berildi. Magistraturada o‘qiydigan ayollar uchun 2023-yildan ularning kontraktlari to‘liq qoplanib berish to‘g‘risidagi qarorlar, shuningdek bakalavr bosqichida o‘qiydigan ayollarni yosh farzandlari bo‘lsa ta’lim olishni onlayn usulda davom ettirish imkoniyatlari berildi.

Prezidentimiz aytganidek, “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.”

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunning yoshlari har tomonlama yetuk va barkamol bo‘lib yetishishlari uchun ularning ijtimoiy muamolarini bartaraf etish barcha uchun zarurdir. Qaysi davlatda ta’lim kuchli bo‘lsa, yoshlarga ko‘proq e’tibor berilsa, o‘sha davlat ravnaq topaveradi, chunki ta’lim-tarbiyasi bor yoshlarda innovatsion loyihalar va vatanga muhabbat ruhida voyaga yetishish bugungi kun islohatlarimizning eng asosiy maqsadiga kiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 23-sonli qarori
3. Jurayev, S. S. O. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1), 395-401.
4. <https://advice.uz/oz/document/2394> 5. [Lex.uz/docs/-5512119](http://Lex.uz/docs/-5512119)